



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

MATN TAHLILIDA LINGVISTIK EKSPERTIZA USULLARINING QO‘LLANILISHI

Zaynura KADIROVA*

Annotatsiya

Ushbu maqola matn tahlilida lingvistik ekspertiza usullarining ilmiy va amaliy qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Lingvistik ekspertiza matnning semantik tuzilishi, uslubiy xususiyatlari va kommunikativ maqsadini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ekspertiza jarayonida qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar – leksik-semantik, stilistik, pragmatik hamda diskursiv tahlil keng yoritiladi. Shuningdek, huquqiy hujjatlar, badiiy matnlar, reklama, ommaviy axborot vositalari hamda internet matnlari misolida ekspertizaning amaliy imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalarida lingvistik ekspertizaning matnni obyektiv baholash, mualliflikni aniqlash, plagiat darajasini o‘lchash va mazmuniy manipulyatsiyalarni fosh qilishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan. Shuningdek, ushbu maqola o‘zbek tilshunosligi, sud lingvistikasi va amaliy tilshunoslikda yangi yondashuvlarni taklif qiladi hamda zamonaviy kommunikatsiya jarayonida lingvistik ekspertizaning dolzarbligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: lingvistik ekspertiza, matn tahlili, leksik-semantik, stilistik, pragmatika, diskurs, semantika, uslub, huquqiy matn, badiiy matn, reklama, internet, mualliflik, plagiat, kommunikatsiya.

Application of Linguistic Expertise Methods in Text Analysis

Abstract

This article explores the scientific and practical application of linguistic expertise methods in text analysis. Linguistic expertise serves as a vital tool in identifying the semantic structure, stylistic features, and communicative purposes of texts. The paper highlights the main approaches used in expertise, including lexical-semantic, stylistic, pragmatic, and discourse analysis. Furthermore, the practical significance of linguistic expertise is demonstrated through examples from legal documents, literary works, advertisements, mass media, and digital texts. The findings emphasize the role of linguistic expertise in objectively evaluating texts, detecting authorship, measuring plagiarism, and uncovering semantic manipulations. The article also proposes new approaches within Uzbek linguistics, forensic linguistics, and applied linguistics, underscoring the importance of linguistic expertise in contemporary communication processes. This study contributes to the broader understanding of how language functions as evidence and as a tool for ensuring clarity, objectivity, and fairness in various fields of application.

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Termiz davlat universiteti, godirova.terdu@gmail.com

Keywords: linguistic expertise, text analysis, lexical-semantic, stylistic, pragmatics, discourse, semantics, style, legal text, literary text, advertising, internet, authorship, plagiarism, communication.

Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvistik ekspertiza matnlarni chuqur tahlil qilish, ularning mazmuniy, uslubiy va semantik xususiyatlarini aniqlash orqali turli sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda matnlar turli kommunikativ vazifalarni bajaradi va ular turli ko‘rinishlarda — huquqiy hujjatlar, badiiy asarlar, reklama, OAV materiallari, internet matnlari shaklida uchraydi. Ushbu jarayonda matnni to‘g‘ri tahlil qilish, uning semantik qatlamlarini ochib berish, stilistik vositalarini aniqlash va kommunikativ maqsadini belgilash zaruriy vazifadir (Karimov, 2008, 47-bet).

Lingvistik ekspertiza, avvalo, matnning obyektiv bahosini ta‘minlash, u orqali mualliflikni aniqlash, plagiat darajasini belgilash, turli manipulyativ usullarni fosh etishda samarali vosita hisoblanadi (Saidov, 2015, 92-bet). Shu bois lingvistik ekspertiza faqat nazariy tilshunoslikda emas, balki amaliy jihatdan ham huquqshunoslik, sud lingvistikasi, jurnalistika va ta‘lim kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda (Xudoyberdiyev, 2016, 138-bet). Mazkur maqolada matn tahlilida qo‘llaniladigan lingvistik ekspertiza usullari — leksik-semantik, stilistik, pragmatik va diskursiv yondashuvlar misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot, shuningdek, lingvistik ekspertizaning zamonaviy kommunikatsiya jarayonidagi dolzarbligini asoslashga qaratiladi (Yo‘ldoshev, 2019, 55-bet).

Lingvistik ekspertiza tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi va bugungi kunda alohida ilmiy sohaga aylandi. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, ekspertiza til tizimining barcha sathlarini — fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va pragmatikani qamrab oladi (Xolmonov, 2017, 214-bet). Shu orqali matnning mazmuni, uslubi va kommunikativ funksiyasi haqida to‘liq ma‘lumot olish mumkin. Matn tahlilida lingvistik ekspertizaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, matnning semantik mazmunini aniqlash; ikkinchidan, uslubiy xususiyatlarini ochish; uchinchidan, kommunikativ niyatini belgilash; to‘rtinchidan, mualliflik va plagiat masalalarini hal qilish (Jo‘rayev, 2020, 66-bet).

Bugungi global axborot makonida matnlar ko‘pincha manipulyativ maqsadlarda qo‘llanilmoqda. Shuning uchun lingvistik ekspertiza ijtimoiy hayotda, xususan, OAV materiallari va internet tarmoqlaridagi matnlarni obyektiv baholashda alohida ahamiyatga ega (Rasulov, 2021, 118-bet). Matnni ekspertizadan o‘tkazishda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar mavjud. Eng avvalo, leksik-semantik tahlil matndagi so‘z va iboralarning ma‘no xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan

(To‘xtayev, 2018, 74-bet). Bu usul orqali matndagi semantik maydon, metaforik birliklar va ma’no siljishlari tahlil qilinadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — stilistik tahlildir. Bu usul matndagi uslubiy vositalar, badiiy san’atlar, ritorik shakllar va emotsional bo‘yoqdorlikni ochib berishga xizmat qiladi (Ruzmetov, 2014, 93-bet). Masalan, badiiy matnlarda ko‘p qo‘llaniladigan metafora, epitet va boshqa stilistik vositalar matnning estetik qiymatini belgilaydi. Pragmatik tahlil esa matnning kommunikativ niyatini, ya’ni kimga qaratilganini, qanday maqsadni ko‘zlayotganini aniqlash imkonini beradi (Hasanov, 2022, 37-bet). Diskursiv tahlil esa matnning keng ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘rnini belgilashga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi (Abdullayev, 2020, 149-bet). Lingvistik ekspertizaning amaliy qiymati birinchi navbatda huquqiy sohada namoyon bo‘ladi. Sud ishlarida matnni baholash, undagi haqorat, tahdid yoki yolg‘on ma’lumotlarni aniqlash lingvist mutaxassislar zimmasiga yuklatiladi (Rasulov, 2021, 119-bet). Masalan, tuhmat yoki haqoratli mazmunni isbotlash uchun matndagi leksik birliklar, ularning konnotativ ma’nolari chuqur tahlil qilinadi (Xudoyberdiyev, 2016, 141-bet). Shu tariqa lingvistik ekspertiza huquqiy jarayonlarning hal qiluvchi bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Ikkinchi amaliy soha — mualliflik va plagiatni aniqlashdir. Matnlar orasidagi o‘xshashlik darajasini aniqlash, mualliflik uslubiga xos lingvistik belgilarni topish, til birliklari statistikasi asosida qaror chiqarish ekspertizaga xos metodlar orqali amalga oshiriladi (Jo‘rayev, 2020, 69-bet). Bugungi kunda ta’lim muassasalarida plagiatni aniqlashning avtomatlashtirilgan dasturlari mavjud bo‘lsa-da, lingvistik ekspertizaning ilmiy tahliliga asoslanmagan natijalar ko‘pincha xatolarga olib keladi (To‘xtayev, 2018, 75-bet).

Shuningdek, lingvistik ekspertiza reklama va OAV matnlarini baholashda ham qo‘llaniladi. Reklamadagi yashirin manipulyatsiya, noto‘g‘ri semantik urg‘ular yoki grammatik vositalar yordamida yaratilgan aldamchi ta’sir usullari ekspertiza orqali fosh etiladi (Ruzmetov, 2014, 96-bet). Internet matnlari, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi post va izohlarni baholashda ham lingvistik ekspertiza yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etmoqda (Hasanov, 2022, 39-bet).

XXI asr kommunikatsiyasi tezkorlik va ochiqlik bilan ajralib turadi. Axborot oqimining cheksizligi sababli matnlarni obyektiv baholashga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda (Yo‘ldoshev, 2019, 57-bet). Bu jarayonda lingvistik ekspertiza ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, jamiyatni noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoya qilish va adolatli huquqiy qarorlarni chiqarishda zarur vosita hisoblanadi.

Lingvistik ekspertizaning kommunikatsiyadagi o‘rni, bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaluvchi soxta xabarlarini tekshirishda namoyon bo‘lsa (Abdullayev, 2020, 150-bet), ikkinchi tomondan, badiiy matnlar orqali tarqatilayotgan g‘oya va qadriyatlarni baholashda ham o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi

(Saidov, 2015, 95-bet). Shuningdek, ekspertiza natijalari ta'lim sohasida ham qo'llanilishi mumkin. Talabalarga matnni chuqur tahlil qilish, undagi lingvistik birliklarning kommunikativ vazifalarini anglash ko'nikmalarini shakllantirish, tilshunoslikning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi (Xolmonov, 2017, 218-bet).

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida lingvistik ekspertiza kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu esa matnlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish imkoniyatini yaratmoqda. Shunga qaramay, hozirgi davrda inson tafakkuri, lingvistik bilim va tajribasi ekspertizadan o'rin olgan asosiy omil bo'lib qolmoqda (Karimov, 2008, 49-bet). Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, lingvistik ekspertiza nafaqat nazariy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishi, balki amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan soha hisoblanadi. Matn tahlilida qo'llaniladigan leksik-semantik, stilistik, pragmatik va diskursiv usullar orqali matnning mazmuniy qatlamlari ochiladi, uslubiy vositalar aniqlanadi va kommunikativ maqsad belgilanadi. Bu esa matnni obyektiv baholash, uning huquqiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini to'liq ochib berish imkonini beradi (Rasulov, 2021, 121-bet).

Amaliy jihatdan lingvistik ekspertiza huquqiy jarayonlarda, sud tergovida, reklama va OAV matnlarini baholashda, shuningdek, plagiat va mualliflikni aniqlashda keng qo'llanilmoqda (Xudoyberdiyev, 2016, 145-bet). Internet matnlari va ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaluvchi soxta xabarlarini tekshirish ham lingvistik ekspertizaning dolzarb vazifalaridan biridir (Hasanov, 2022, 42-bet). Zamonaviy kommunikatsiya jarayonida lingvistik ekspertiza inson tafakkuri, tilshunoslik bilimlari va ilmiy yondashuvga asoslangan holda jamiyatni noto'g'ri ma'lumotlardan himoya qilish, axborot oqimida adolatli baho berish, tilning huquqiy va ijtimoiy vazifalarini samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda (Abdullayev, 2020, 153-bet). Shu sababli, lingvistik ekspertiza nafaqat tilshunoslik fanining, balki huquqshunoslik, jurnalistika va ta'limning ham muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilishi lozim (Yo'ldoshev, 2019, 59-bet).

Maqola natijalari shuni tasdiqlaydiki, lingvistik ekspertizaning rivojlanishi, usullarini takomillashtirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish kelgusida ushbu sohaning samaradorligini yanada oshiradi (Jo'rayev, 2020, 71-bet; To'xtayev, 2018, 77-bet).

Xulosa

Matn tahlilida lingvistik ekspertiza usullarining qo'llanilishi zamonaviy tilshunoslik va amaliy nutq madaniyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot davomida lingvistik ekspertiza metodlari turli sohalarda – huquqiy jarayonlarda, ta'limda, ilmiy izlanishlarda va ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishi o'rganildi. Analiz shuni ko'rsatdiki, matnning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini

chuqur o'rganish ekspertiza samaradorligini oshiradi, xususan, manipulyativ mazmun, ekstremistik g'oyalar yoki noto'g'ri talqinlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida lingvistik ekspertiza metodologiyasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribani uyg'unlashtirish zarurligi aniqlanadi. Demak, lingvistik ekspertiza nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham keng qo'llaniladigan, ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy soha sifatida rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdullaev S. *Lingvistik tahlilning ijtimoiy o'rni*. [Til va jamiyat] — Toshkent.

Hasanov I. (2022). *Internet diskursida lingvistik ekspertiza: metod va amaliyot*. — Samarqand: SamDU nashriyoti.

Xudoyberdiev A. (2016). *Huquqiy matnlarda lingvistik ekspertiza usullari*. — Toshkent: Adolat.

Jo'raev D. (2020). *Lingvistik ekspertizaning zamonaviy yo'nalishlari*. — Buxoro: BuxDU nashriyoti.

Rasulov R. (2021). *Matnshunoslik va lingvistik ekspertiza asoslari*. — Toshkent: Universitet.

To'xtaev M. (2018). *Sud lingvistikasida matn tahlili*. — Toshkent: Yangi asr avlodi.

Yo'ldoshev Q. (2019) *Lingvistik ekspertizaning nazariy va amaliy masalalari*. — Qarshi: Nasaf.